

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

SENTYABR, 2025



ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, sentyabr

TOSHKENT-2025

ISSN - 3093-8791

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 7-son (sentyabr, 2025-yil). – 81 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 25-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rinni bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzARB muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Karimov Rustam

TO'QUV JARAYONIDA TANDA VA ARQOQ IPLARINING O'ZARO ISHQALANISHINING SIFAT VA
ISH UNUMDORLIKGA TA'SIRINI O'RGANISH 5-11

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Toxirov Kozim

MASOFADAN ZONDLASH MATERIALLARIDAN FOYDALANIB QISHLOQ XO'JALIK YERLARINI
DEGRADATSIYAGA UCHRASH HOLATLARINI MONITORING QILISH 12-15

TARIX FANLARI

Rahmatov Muhriddin

XALQ DORILFUNUNI TARIXI VA FAOLIYATI 16-19

Norov Shuhrat

ZARAFSHON VOHASI YOSHLARI MISOLIDA: IJTIMOIY FAOLLIK VA IQTISODIY
ERKINLIK 20-23

Abdimurodova Zebiniso

TERMIZ MUZEYI — O'RTA OSIYO JANUBIDAGI ILK MUZEY 24-29

IQTISODIYOT FANLARI

Олеся Авдошкина

ВНЕДРЕНИЕ ЗАРУБЕЖНЫХ ПРАКТИК ГОСУДАРСТВЕННОЙ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ
МАЛОГО БИЗНЕСА 30-35

Суюнова Саодат

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ И ЭКОТУРИЗМА 36-41

FILOLOGIYA FANLARI

Zokirova Barchinoy

LAKONIZMNING ADABIY-NAZARIY ASOSLARI VA USLUBIY TAMOYILLARI 42-45

Eshchanova Mavjuda

INGLIZ VA O'ZBEK MEDIA DISKURSIDAGI EVFEMIZMLARNING MADANIY FARQLARI VA
ULARNING TARJIMADA SAQLANISHI MASALALARI 46-49

Razikov Baxtiyor

EMOJI VA HASHTAG BIRLIKHLARI NEOLOGIZM SIFATIDA: FUNKSIONAL-PRAGMATIK
KUZATUV 50-52

YURIDIK FANLARI

Nishanov Sanjar

SUDYALAR HUQUQIY ONGI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIGA TA'SIR QILUVCHI OB'EKTIV
VA SUB'EKTIV OMILLAR 53-59

PEDAGOGIKA FANLARI

G'aniyev Shaxzod

TARIX O'QITUVCHILARI UCHUN RAQAMLI KONTENT YARATISH KOMPETENSIYASINI
RIVOJLANTIRISH YO'LLARI 60-65

Najmetdinova Nargiza

TA'LIM JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK
ASPEKTLARI 66-69

TIBBIYOT FANLARI*Yuldasheva Zulkhumor*COMPARATIVE OBSERVATION OF ARRHYTHMIAS IN HEALTHY PREGNANT WOMEN AND
THOSE WITH MITRAL VALVE PROLAPSE: A CLINICAL PERSPECTIVE 70-73**SIYOSIY FANLARI***Toshpulatov Shohruxbek*

MARKAZIY OSIYODAGI LOGISTIK TARMOQ 74-80

TERMIZ MUZEYI - O'RTA OSIYO JANUBIDAGI ILK MUZEY

Abdimurodova Zebiniso Alisher qizi

Termiz davlat muzey qo'riqxonasi ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari

Tel: +998 97 176 66 64

Surxondaryo, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada Termiz davlat muzey-qo'riqxonasining shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti va hozirgi faoliyati yoritilgan. Muzey O'zbekiston janubidagi ilk muzey sifatida nafaqat tarixiy obidalarni jamlab saqlash, balki ularni ilmiy asosda tadqiq etish va keng jamoatchilikka targ'ib qilishda muhim ilmiy-ma'rifiy maskan hisoblanadi. Maqolada Eski Termizdan topilgan arxeologik topilmalar, XIX-XX asrlarda yig'ilgan kolleksiyalar, muzeyning Sovet davri va Mustaqillikdan keyingi faoliyati, shuningdek, xalqaro ilmiy hamkorliklari haqida ma'lumot beriladi. Bugungi kunda Termiz davlat muzey-qo'riqxonasi 62 mingdan ortiq eksponatlarga ega bo'lib, Surxondaryo hududidagi yirik arxeologik va madaniy meros ob'ektlari uning tarkibiga kiritilgan. Xususan, Kushonlar davlati tarixiga oid ekspozitsiyalar yaratish va yangi arxeologik tadqiqotlar olib borish muzey faoliyatining asosiy yo'nalishlari sifatida ko'rsatilgan. Maqola muzeishunoslik sohasidagi izlanishlar, milliy merosni asrab-avaylash hamda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Termiz muzeyining o'rni va ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Termiz muzeyi, arxeologik meros, madaniy yodgorliklar, muzeishunoslik, Surxondaryo, tarixiy obidalari, Kushonlar davlati, ekspozitsiya, muzey qo'riqxona, O'zbekiston tarixi.

TERMIZ MUSEUM – THE FIRST MUSEUM IN THE SOUTH OF CENTRAL ASIA

Abdimurodova Zebiniso Alisher qizi

Deputy Director for Scientific Affairs, Termiz State Museum-Reserve

Annotation. This article explores the establishment, historical evolution, and contemporary activities of the Termiz State Museum-Reserve. Recognized as the first museum in southern Uzbekistan, it not only collects and safeguards historical monuments but also functions as a scientific and educational institution that reveals the cultural and historical heritage of the region. The study provides an overview of archaeological discoveries from Ancient Termez, collections gathered during the 19th–20th centuries, the museum's development during the Soviet era and after independence, as well as its international collaborations. At present, the Termiz State Museum-Reserve preserves over 62,000 exhibits, including major archaeological and cultural heritage sites of the Surkhandarya region. Special attention is given to exhibitions devoted to the Kushan Empire and to the continuation of archaeological research as the main strategic directions of the museum. The article emphasizes the museum's significance in advancing museology, preserving national heritage, and fostering patriotic values among the younger generation.

Key words: Termiz Museum, archaeological heritage, cultural monuments, museology, Surkhandarya, historical monuments, Kushan Empire, exhibitions, museum-reserve, history of Uzbekistan.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2025v1i7/n05>

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida jamiyatda kishilarning ma'naviy yetukligi muhim rol o'ynaydi. Shu o'rinda ajdodlarimiz qoldirgan boy merosni o'rganish, xalqimizning dunyo tamaddunida tutgan o'rniga xolisona baho berish, ajdodlar merosiga munosib voris bo'lish, tariximizning o'rganilmagan qirralarini tadqiq qilish, madaniy merosimizni asrab avaylash va targ'ib etishda muzeylar alohida ahamiyat kasb etadi.

Surxondaryo viloyatida joylashgan Termiz davlat muzey qo'riqxonasi ekspozitsiyalari yurtimizning eng qadimgi taraqqiyotidan hozirga qadar bo'lgan davrini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan madaniy-ma'rifiy maskandir.

Yurtimizning janubiy hududlarida shakllangan qadimi shaharsozlik madaniyatining moziydag'i aksi sifatidagi qadimi shahar qoldiqlari, tarixiy va arxeologik yodgorliklar xorijiy sayyoohlар va dunyoning bir qator davlatlari ilmiy jamoatchiligining yurtimizga juda katta qiziqish bilan qarashlarining asosiy manbaidir.

Ma'lumki, Eski Termiz tarixi azal-azaldan tarixchi va sayyoohlarning diqqat e'tiborini o'ziga tortib kelgan. Shu tufayli Termiz tarixiga doir topilmalardan iborat kolleksiyalarni yaratish ustida ko'pgina tarixchilar harakat qilishgan.

Dastlabki kolleksiyalar 1875-1879-yillarda Amudaryo bo'yidagi tarixiy yodgorliklardan N.A.Maev tomonidan to'plangan. Shuningdek, 1834-1837-yillarda Eski Termiz hududidagi fransuz sayyoohlari G.Bonvalo, 1890-1891 yillarda Ye.F.Kal, 1894-1896-yillarda I.T.Poslovskiy, 1896-yilda N.N.Sherbina-Kramerenkova, A.B.Vrevskiy, 1894-1898-yillarda B.N.Litvinov, 1888-1912-yillarda A.A.Semyonov, 1894-1912-yillarda B.N.Kastalskiy kabilar tomonidan to'plangan kolleksiyalarni ham keltirish mumkin.

Shuningdek, Eski Termizdan topilgan ko'pgina nodir ashyolar Rossiya shaharlariga olib ketilgan. Masalan, Termizdagi Stroganov nomidagi harbiy bilim yurti qoshida tashkil etilgan muzeyning Eski Termiz tarixiga doir buyumlari 1904-yilda Moskva Sharq madaniyati muzeyiga berib yuborilgan. Bu buyumlar orasida qadimgi grek-baqtriya va kushon madaniyatiga doir qimmatli ashyolar bo'lgan. Shuningdek, Eski Termiz hududidan topilgan ko'pgina nodir ashyolar 1908-1914-yillarda Z.Z.Vinogradov, D.N.Logofet va I.A.Kastanov tomonidan Toshkentdagi rus muzeylariga topshirilgan.

1914-yilda Termizdan juda katta miqdorda antik davr tarixiga doir kumush va mis tangalarni ingliz sayyoohlari Delari olib ketganligi tarixiy manbalardan ma'lum[6].

G.V.Parfyonov tomonidan viloyatimiz hududidan topilib, boshqa joylarga berib yuborilgan tarixiy buyumlarning ro'yxati tuzib chiqilgan. Ushbu ro'yhatdan namuna keltiramiz.

- Nefrit toshlardan iborat geologiya kolleksiyasi I.V.Mushketov tomonidan Leningrad geologiya muzeyiga topshirilgan.

- E.F.Kalning Eski Termiz tarixi bilan bog'lik noyob kolleksiyasi (1890-1891) Davlat ermitajiga topshirilgan.

- B.N.Kastalskiyning viloyatimiz tarixi bilan bog'liq boy kolleksiyasi Moskva Sharq madaniyati muzeyiga va Leningraddagi Davlat ermitajiga berib yuborilgan.

- 1906-yilda R.Yu.Rojevisning Janubiy va O'rta Buxoroga qilgan safari chogida to'plangan noyob buyumlardan iborat kolleksiya rus imperatori huzuridagi Arxeologik komissiyaga topshirilgan.

- N.D.Logofet tomonidan to'plangan boy kolleksiya namunalari Moskvaga olib ketilgan va 1921-yilda uning o'limidan so'ng yo'qotilib yuborilgan.

- L.I.Kastalskiy tomonidan to'plangan kolleksiya Parijga olib ketilgan[7].

Termizda muzey tashkil etishning asosiy sabablaridan biri Rus imperiyasi tomonidan Termiz ishg'ol etilgach, Amudaryo bo'ylab Pattakesarda joylashgan chegara harbiy brigadasi qo'shnirlari tomonidan sim to'siqlar Karki shahridan Termizgacha tortib chiqiladi. Ana shu jarayonda chegara hududlaridan ko'plab noyob tarixiy buyumlar topilib, Termizdagi chegara brigadasiga qarashli zabitlar uyi binosining ikkita xonasida mineralogiya, botanika,

arxeologiya, numizmatika va etnografiyaga doir buyumlar to'plana boshlaydi. Keyinchalik ushbu binoda to'plangan ashyolar asosida yopiq muzey ochilib, 1917-yilga qadar faoliyat ko'rsatadi. U 1917-yilda esa ushbu muzeydagi ashyolar noma'lum tomonga olib ketilgan. Bu voqealari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizdagi keksa madaniyat maskanlaridan biri, 1933 yil 17 sentyabrda Termiz shaxrida Surxondaryo tumanlararo Davlat muzeyi (xozirgi kunda Termiz davlat qo'riqxonasi) tashkil etilgan. Termiz davlat qo'riqxonasi manbaviy asosi qariyib 100 yillik tarixga ega bo'lgan muzey xisoblanadi. Dastlab muzey I-toifali muzey sifatida 1933 yil 7 noyabrdan o'z faoliyatini boshladi va Termiz shahridagi Surxondaryo tumanlararo davlat muzeyi deb nomlandi. Birinchi ekspozitsiya 1933 yil 7 sentyabr kuni yaratilgan bo'lib, unda o'sha davr siyosiy tuzumi aks ettirildi. Ekspozitsiya 32 m² maydonga tashkil etilib, ikkita xonadan iborat edi.

Muzeyning faoliyat yo'nalishi viloyat tabiatni, san'ati, madaniyatni, xalq xo'jaligi va hayotini o'rganish uchun turli va vizual materiallarni targ'ib qilishga qaratildi. Xususan, muzeyning birinchi direktori va tashabbuskori G.V.Parfyonov hamda 5 kishidan iborat muzey xodimlari ilk faoliyatini ilmiy-tekshirish, eksponatlar to'plash va ommaviy-ma'rifiy ishlarni targ'ibot qilishdan boshladi. 1933 yilda tabiat bo'limiga oid 239 ta eksponat, tarix bo'limiga oid 701 ta eksponat va xalq xo'jaligi bo'limiga oid 56 ta eksponat yig'ildi hamda doimiy ko'rgazmada namoyish etildi. 1936 yilda muzey eksponatlarini doimiy saqlash maqsadida fond bo'limi tashkil qilindi. Unga birinchi bo'lib A.M.Sheyko mudira etib tayinlandi.

Termiz davlat muzey-qo'riqxonasining dastlabki faoliyatini hozirgi kun bilan taqqoslasak, katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur dargoxda birinchi bo'lib G.V.Parfyonov (1933-1948 yillar), undan so'ng R.F.Fayozov (1948-1972 yillar), Y.Ismoilov (1972-1984 yillar), X.Q.Saidov (1985-1997 yillar), P.B.Jo'rayeva (1997-1998 yillar), I.T.Botirov (1998-2001 yillar), R.Sh.Umbarov (2002-2011 yillar), Sh.Daminov (2012-2017 yillar), S.Inoyatovalar (2017-2020 yillar) rahbarlik qildi, hozirda B.Zulfikarov rahbarlik qilmoqda.

Muzeyda mavjud XIX asr oxiri XX asr boshlarida rossiya imperiyasi bosqinini tasdiqlovchi ko'plab xujjatlar, Termiz shaxrining xarbiy-strategik forpostga aylantirilishiga oid arxiv materiallari O'zbekiston tarixini o'rganishda g'oyat axamiyatlidir.

XX asrning 70 yillarida muzey fondida 1000 dan ortiq materiallar to'plangan. Ularda rus manzilgoxlari va kazarmalariga oid, shaxar xo'jaligi, sistemasi, savdo, maorif, sog'liqni saqlash masalalari aks etgan. Termiz xarbiy boshqarmasi boshlig'ining xarbiylar lagerida maxalliy axolining davolanishi to'g'risidagi rapporti, Rossiya siyosiy agentligi bilan yozishmalari bilan Samarqand turmasidan yuborilgan maxbuslar uchun kishanlar, Denov bekligi axolisining Termiz shaxrining binolarini qurishga jalb etilishi xaqidagi xujjatlar jumlasindandir. 1898-1904 yillarga oid 15 chi o'qchi Turkiston batalyonlari soldatlari ustidan o'rnatilgan politsiya nazorati, dexqonlarning soliq majburiyatları 1905-1917 yillarga oid materiallar voxasi tarixini o'rganishda axamiyatlidir. Termizdagi 1-chi rus manzilgoxiga tegishli 42 ta xujjat va 10 ta rasm yig'ilgan. Ruslarning Termezdan yer sotib olishlari, 31- Amudaryo brigadasi Termezdagi apteka, paxta zavodlari ruslarning kirib kelishiga oid 111 ta manba yig'ilgan. Bu kabi tarixiy qimmatga ega arxiv xujjatlarini tavsiflashda mustabid sovet tuzumi g'oyalari ustunlik qilgan-kommunistik mafkura asosida eksponatlarga baxo berilgan. Faqatgina mustaqillik sharofati bilangina tarixiy xaqiqat qaror topib xalqimizning urf-odatlari, boy madaniy merosi tarixi tiklandi.

1940 yilda G.V.Parfyonov raxbarligida O'zbekiston San'ati tarixi muzeyi, Surxondaryo tumanlararo davlat muzeyi, Tojikiston Respublikasi Panjikent tumani o'lkashunoslik muzeylari bilan hamkorlikda Zarautsoyga ekspeditsiya tashkil etildi.

Ikkinci jahon urushi boshlanishi munosabati bilan muzey ilmiy hodimlari mamlakatning barcha mard o'g'lonlari kabi urushga, frontga safarbar qilindi.

Urush yillarida ham vohaning tog'li hududlarida ibtidoiy odamlar manzillarini qayd qilish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borildi. 1940 yil oxirida V.A.Kozlovskiyning muzeyga qaytishi va keyingi qirq yil davomida muzeyda tengi yo'q direktor o'rinnbosari sifatida faoliyat yuritishi muzey ilmiy hayotida muhim o'rin tutdi. Aynan o'sha davrda viloyat hududida katta arxeologik ekspeditsiyalar o'tkazildi. V.A.Kozlovskiy rahbarligida kushonlar davri mudofaa devorlari va suv inshootlari (I-III asrlar), hunarmandlar guzari (XII-XIII asrlar) va paxtadan tikilgan kiyim majmuasi topilgan Eski Termiz hududidagi Qo'rg'on yodgorligi (V-VII asrlar) ochib o'rganildi. 1945 yilning kuzida Zarautsoyda navbatdagi ekspeditsiya ish olib borildi. Ekspeditsiyaga G.V.Parfyonov rahbarligida O'zTAG fotomuhbiri M.Rozinkrans, rassom Roginskaya, o'lkashunos I.Lomayev, ishchi Sh.Ismoilov, qo'riqxona xodimi B.Davlatovlar ishtirok etdi. Ekspeditsiya davomida Zarautsoydagagi 264 ta qoyatosh suratlari o'rganildi va fotosuratlari olinib muzey fondiga topshirildi.

1945 yilning oktyabr oyida Angliyaning Kembrij universiteti professori arxeolog Y.N.Mins Surxondaryo viloyati o'lkashunoslik muzeyiga xat yo'llaydi. Unda "Zarautsoy vodiysida, nazarimda, paleolit freskalari kashf qilinganligini o'qidim. Mamalakatingizda arxeologiya ishlari, xatto urush davrida ham to'xtab qolmaganligiga hayratlanish mumkin" deb yozadi va bu haqda Kembrij universitetiga ma'lumot yuborishlarini so'raydi.

Shuningdek 1900 yillar Zurmala minorasi atrofidan eski Termezdan kolxozchilar 44 ta eksponat topib olganlar. Ular orasida qadimiy chiroq, sopol quvurlar, sopol idishlar uchraydi. Bu buyumlar XI-XII asrlarga oidligi o'rganilgan. Sherobod tumani Chorbog' qishlog'i axolisi XIII-XIV asrlarga oid 2 dona piliklik qadimiy chiroq, VI-VII asrlarga oid muxrlarini quduq chaziyotganlarida topib olib, muzey xodimi G.Ochilovga topshirganlar. Termez pedagogika bilim yurti talabasi Xujanov tomonidan XII-XIII asrlarga oid 17 ta eksponatni Termiz stansiyasi atrofdagi dala ishlari vaqtida topib olgan ular orasida mexnat qurollari bola o'yinchog'i va ko'zalar bo'lgan. Shu tariqa, uzoq yillar davomida muzey xodimlari viloyat hududida arxeologik ekspeditsiyalar va madaniy meros yodgorliklari tadqiqoti bilan shug'llanuvchi olimlar bilan yaqin aloqalar o'rnatadi. Keyinchalik Arxeologiya instituti, San'atshunoslik instituti va O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi tomonidan Bolaliktepa, Xayrobodtepa, Xolchayon, Dalvarzintepa, Chingiztepa, Fayoztepa, Kampirtepa kabi viloyatning noyob yodgorliklarida olib borilgan qazishma ishlarida ishtirok etadi.

Termiz shahar hokimining 2000 yil 14 avgustdagagi «Termiz shaxrining 2500 yillik yubileyini munosib kutib olish va shahar xududida keng miqyosda obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish to'g'risida»gi qaroriga asosan viloyat o'lkashunoslik muzeyining eski binosi buzildi. Termiz tumaniga ko'chirilgan O'lkashunoslik muzeyi 2002-2010 yillar davomida Al-Hakim at-Termiziy me'moriy majmuasida joylashgan «Meros» muzeyi binosida faoliyat ko'rsatdi.

2010 yilda muzey Termiz shahrida 1895-1905 yillarda Rossiya imperiyasi tomonidan qurilgan "Harbiy qal'a" binosiga ko'chiriladi. Ilgari ushbu harbiy qal'ada askarlar xizmatini o'taydigan harbiy qism joylashgan bo'lib, bino umuman muzeyga moslashtirilmagan edi.

Shunga qaramay, muzey hodimlarining sa'y-harakati bilan harbiy qal'aning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, 345 metr² ekspozitsiya maydoniga ega bo'lgan xonalar ta'mirlanib, muzey faoliyati davom ettiriladi. Unda muzey ekspozitsiyasining ilmiy konsepsiyasidan kelib chiqib, mavzuli ko'rgazmalar rejasi asosida arxeologiya, etnografiya, tasviriy san'at va tabiat bo'limlariga oid 460 ta eksponatdan iborat doimiy ko'rgazma tashkil etildi.

2014 yilda qal'a binosining buzilishi munosabati bilan muzey vaqtinchalik viloyat Xo'jalik sudining eski binosiga ko'chirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" 2017 yil 31 maydagi qarori ijrosi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 dekabrdagi qaroriga asosan, 2017-2027 yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturiga muvofiq, "O'lakashunoslik muzeyi"ga "Surxondaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi" nomi berildi.

2017-2019 yillar davomida Termiz shahridagi 3 qavatlari "Tadbirkorlar markazi" binosi muzeysiga moslashtirilib kapital ta'mirlandi va to'liq jihozlanib, moddiy-texnika bazasi tubdan yangilandi. Muzey eksponatlari to'liq yangi binoga ko'chirildi. Muzeyning birinchi qavatida tabiat bo'limi, ikkinchi qavatida arxeologiya, tarix, mustaqillik davri, tasviriy san'at bo'limi galereyasi tashkil etildi. Uchinchi qavatida muzeyning entografiya bo'limi va bir qismida tasviriy san'at ekspozitsiyasi yaratildi. Hozirda kunda muzey fondida 62 ming 300 ta eksponatlar mavjud. 2019-yil 30-maydagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 443-ton qarori bilan muzey negizida Termiz davlat muzeyi - qo'riqxonasi tashkil etilib, Muzrabot tumanidagi "Kampirtepa", Jarqo'rg'on tumanidagi "Jarqo'rg'on minorasi", Sherobod tumanidagi "Zarautsoy", Termiz tumanidagi "Zurmala minorasi" va "Eski Termiz, Sho'rchi tumanidagi "Dalvarzintepa" madaniy meros obektlari uning tasarrufiga o'tkazilgan. Hozirgi kunda "Termiz" davlat muzey qo'riqxonasi 1 ta asosiy bosh bino va 21 ta madaniy meros obyektlarini o'z ichiga oladi. Shundan 14 tasi arxeologiya, 4 tasi arxitektura 3 tasi diqqatga sazovor obyektlari hisoblanadi. "Termiz" davlat muzey qo'riqxonasining asosiy binosiga 2024 yil xisobiga bugungi kungacha jami 31447 nafar tashrifchilar kelgan bo'lib, shundan 24123 nafari 18-yoshgacha bo'lganlar, 7258 nafari qolganlar, 66 nafar chet ellik, 12256 nafar bepul tashrifchilar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, "Termiz" davlat muzey-qo'riqxona xamda uning balansidagi madaniy meros ob'ektlari yosh avlodga vatanimiz tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir. Tarixiy obyektlarni saqlab qolish va ularni keng jamoatchilikka tanishtirishda ekspozitsiyalar yaratish xam muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda O'zbekiston tarixida alohida o'rin tutgan Kushonlar davlati madaniy merosini chuqurroq o'rganish, targ'ib qilish va yosh avlodga yetkazish maqsadida ushbu konsepsiysi, loyihasi hamda mavzuiy rejaning ishlab chiqilib "Kushonlar tarixi" ekpozitsiyasi tashkil etilsa bu boradagi muhim qadamlardan biri bo'ladi.

Shu bilan birga, muzeysiga biriktirilgan madaniy meros ob'ektlarida arxeologik tadqiqotlarni tizimli davom ettirish, topilgan yangi arxeologik materiallar asosida ekspozitsiya va ko'rgazmalarni boyitish zarur. Bu jarayonlar nafaqat tarixiy haqiqatni tiklashga, balki milliy o'zlikni anglashga, tarixiy xotirani mustahkamlashga xizmat qiladi. Demak, madaniy merosni

ilmiy yondashuv asosida o'rghanish, uni ekspozitsiya orqali namoyon etish – O'zbekiston tarixini chuqur anglashda muhim vositaga aylanishi shubhasizdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Р.В.А : Музеи Узбекистана и социално-культурные перспективы их развитие.
2. С.Турсунов,Э.Кобилов,Т.Пардаев,Б.Муртазоев: Сурхондарё тарих қузгусида.
3. Курязова Д.: Музей иши тарихи ва назарияси.
4. Узбек музей жамгармаси, тузувчи К.Нишонова : Музей халк тарихининг кузгуси
5. Термиз давлат музей кўриқхонаси фонд архиви № у-63 иш.
6. Парфёнов Г.В. Краткая история Сурхандарьинского областного краеведческого музея (1933-1943 гг). Архивное дело Дело №252. С.1-4. Термиз давлат музей-кўриқхонаси илмий архиви.
7. Парфёнов Г.В. Краткая история Сурхандарьинского областного краеведческого музея (1933-1943 гг). Архивное дело №520. 134 л. С.5. Термиз давлат музей-кўриқхонаси илмий архиви.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, sentyabr

Mas'ul muharrir:

F.T.Isanova

Texnik muharrir:

N.Bahodirova

Diszayner:

I.Abdihakimov

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 7-son (sentyabr, 2025-yil). – 81 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 25-avgust

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil.

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.